


TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

ANDIJON VILOYATIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019-yil yanvar-noyabr*)


Viloyatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Kelgusida ular jahon bozorida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladilar.

Ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar borasida, 2019 yil yanvar-noyabr oylari hisobot davrida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2 379,6 million dollarni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 31,3 % ga o‘tdi. Shu jumladan, eksport 525,9 mln. AQSh dollar (o‘shish sur‘ati - 59,7 %), import esa 1 853,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi (o‘shish sur‘ati - 25,0 %). Tashqi savdo balansi 1 327,8 mln. AQSh dollari miqdoridagi passiv qoldiq qayd etildi.









*Dastlabki ma‘lumotlar asosida

2019-yil yanvar-noyabr oylari yakunida Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 38 269,9 mln. AQSh. doll., eksport 16 255,1 mln. AQSh. doll., import esa 22 014,8 mln. AQSh. doll.ni tashkil etgan. Viloyatining respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 6,2 %, eksportda 3,2 %, importda esa 8,4 % ni tashkil qildi.



Viloyatimiz dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshiradi. Dunyo mamlakatlari orasida uning tashqi savdo aylanmasining eng katta hajmi Koreya Respublikasi (53,0 %), Xitoy (11,8 %), Rossiya Federatsiyasi (8,9 %), Qirg'iziston (8,5 %), Qozog'iston (5,6 %), Turkiya (2,1 %), AQSh (1,9 %) va boshqa davlatlar 8,2 %.






2019-yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra viloyatning tashqi savdo aylanmasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. O'tgan yilning shu davriga nisbatan tashqi savdoda eksport ulushi 21,6 foiz darajaga o'sdi.

2019-yil yanvar-noyabr oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlari bilan savdo hajmi 578,9 mln. AQSh dollarini tashkil qildi va O'zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 1,5 % dan ortdi.

Viloyatning qo'shni davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi o'zaro savdo-sotiqqa ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. MDH mamlakatlari bilan savdoning qariyb 24,3 foizi qo'shni davlatlar tomonidan amalga oshiriladi, shundan eksportning 75,7 foizi va importning 11,0 foizi qo'shni davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-noyabr oyilarida viloyatning MDH va boshqa davlatlarning tashqi savdo aylanmasida ulushi, foizda



Hisobot davrida viloyatning tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlari orasida Rossiya, Qirg'iziston va Qozog'iston davlatlari, tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 23,0 foizni






tashkil qiladi, boshqa davlatlar orasida Janubiy Koreya, Xitoy, Turkiya, AQSH, Shveysariya, Germaniya, Italiya, Chexiya, Braziliya va boshqa davlatlari hisoblanadi, ularning ulushi 77,0 foizni tashkil qiladi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo'lgan davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi










(2019-yil yanvar-noyabrda, foizda)



Viloyat tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo'lgan davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi

Davlatlar	Tashqi savdo aylanmasi mln. AQSH dollar;	O'tgan yilga nisbatan foiz hisobida	Tashqi savdo aylanmasi ulushi, %
 Janubiy Koreya	1 262,4	122,6	53,0
 Xitoy	279,8	128,5	11,8
 Rossiya	211,2	112,1	8,9



	Qirg'iziston	202,9	197,3	8,5
	Qozog'iston	132,2	164,3	5,6
	Turkiya	50,6	134,7	2,1
	AQSH	46,0	5,3 m.	1,9
	Shveysariya	18,1	83,4	0,8
	Germaniya	17,9	2,2 m.	0,8
	Italiya	11,9	166,2	0,5
	Chexiya	11,0	133,9	0,5
	Braziliya	10,8	133,3	0,5

Viloyat tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha taqsimlanishi

Qit'lar nomi	2019-yil yanvar-noyabrda (mln. AQSH dollar)		Tashqi savdo aylanmasi	
	Eksport	Import	O'tgan yilga nisbatan foiz hisobida	Jamiga nisbatan foizda
Jami:	525,9	1 853,7	131,3	100,0
Yevropa	91,0	287,0	119,8	15,9
Osiyo	434,4	1 502,9	131,3	81,4
Amerika	0,5	63,6	312,1	2,7
Afrika	0,0	0,2	888,1	0,0




**2019-yil yanvar-noyabr oylarida chet el sarmoyasi ishtirokidagi
korxonalarning asosiy ko'rsatkichlari**

Shahar va tumanlar nomi	Ro'yxatga olingan (birlik)	Ishlayapti (birlik)	Vaqtincha ishlamayapti (birlik)	Tashqi savdo aylanmasi (ming AQSh doll.)	Eksport (ming AQSh doll.)	Import (ming AQSh doll.)
Viloyat bo'yicha:	312	299	13	427 486,5	153 197,7	274 288,8
Andijon sh.	118	116	2	227 320,9	27 036,4	200 284,5
Shahrixon	22	20	2	5 410,7	3 624,7	1 786,0
Andijon	29	27	2	4 864,0	3 311,1	1 552,9
Asaka	17	17		9 452,0	684,0	8 768,0
Oltinko'l	17	17		18 602,2	9 860,9	8 741,3
Qo'rg'ontepa	10	8	2	78,6		78,6
Baliqchi	13	12	1	37 904,8	37 036,7	868,1
Marhamat	12	12		3 645,5	2 619,9	1 025,7
Izboskan	8	7	1	43 386,5	41 957,9	1 428,6
Buloqboshi	13	12	1	1 682,3	1 395,9	286,4
Xonobod sh.	13	13		67 015,3	23 078,5	43 936,8
Jalaquduq	9	8	1	1 831,2	679,0	1 152,2
Paxtaobod	7	6	1			
Xo'jaobod	11	11		1 719,1	1 026,3	692,8
Ulug'nor	5	5		652,2		652,2
Bo'ston	8	8		3 921,1	886,4	3 034,6

Viloyatda chet el sarmoyasi ishtirokida jami 312 ta korxonalar mavjud bo'lib, shundan, joriy yilning shu davriga kelib 299 ta korxonalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda, qolgan 13 ta korxonalar vaqtincha faoliyatini to'xtatgan. Chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalarining tashqi savdo aylanmasi jami 427,5 mln. AQSH dollar, viloyat tashqi savdosidagi ulushi 18,0 % ni tashkil qildi. Eksport 153,2 mln. AQSH dollar, import 274,3 mln. AQSH dollarga teng bo'ldi.



**Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi,
jamiga nisbatan ulushi foizda
(2019-yil yanvar-noyabr)**



2019-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat eksportining hajmi 525,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 59,7 % ga yetdi). Eksport qilinadigan mahsulotlar ulushi 99,3% ni tashkil etdi, shundan tekstil va trikotaj mahsulotlari - 44,1 %, mashina va uskunarlar 23,8 %, oziq-ovqat mahsulotlari - 19,2 %, qora va rangli metallar - 1,4 %, kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar - 0,8 %.



MDH va boshqa xorijiy davlatlarning eksport tarkibi (2019-yil yanvar-noyabr)

Eksport tarkibi	Jami			MDH			Boshqa davlatlar		
	Ming AQSh. doll.	O'tgan yilga nisbatan o'zish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %	Ming AQSh. doll.	O'tgan yilga nisbatan o'zish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %	Ming AQSh. doll.	O'tgan yilga nisbatan o'zish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %
JAMI:	525 902,5	159,7	100,0	374 834,9	169,0	100,0	151 067,6	140,6	100,0
Paxta tolasi	1 066,7	0,0	0,2				1 066,7	0,0	0,7
Oziq-ovqat mahsulotlari	100 794,5	130,7	19,2	86 403,8	116,3	23,1	14 390,7	5,1 m.	9,6
kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	4 039,0	184,7	0,8	3 649,1	182,6	1,0	390,0	2,1 m.	0,3
qora va rangli metallar	7 198,4	6,6 m.	1,4	7 083,2	6,8 m.	1,9	115,2	2,2 m.	0,1
mashina va uskunalar	125 326,3	3,1 m.	23,8	122 482,5	3,2 m.	32,7	2 843,8	152,7	1,9
tekstil va trikotaj mahsulotlari	231 718,8	120,5	44,1	100 277,1	110,2	26,8	131 441,7	129,8	87,0
Xizmatlar	3 703,1	83,8	0,7	2 883,6	70,5	0,8	819,5	2,5 m.	0,5
Boshqalar	52 049,8	25,6	9,8	52 049,8	51,2	13,7			

Eksport tuzilmasi dinamikasi (2019-yil yanvar-noyabr)

Eksport tarkibi	2017 y.	2018 y.	2019 y.
JAMI:	100,0	100,0	100,0
Paxta tolasi	-	-	0,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	17,7	23,4	19,2
kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	0,4	0,7	0,8
qora va rangli metallar	0,2	0,3	1,4
mashina va uskunalar	36,2	12,3	23,8
tekstil va trikotaj mahsulotlari	37,7	58,4	44,1
Xizmatlar	1,0	1,3	0,7
Boshqalar	6,8	3,6	9,8



So‘nggi uch yil ichida eksport tarkibini diversifikatsiyalash dinamikasi kuzatilmoqda. Shunday qilib, tekstil va trikotaj mahsulotlari ulushi 6,4 foiz darajaga o‘tdi va 44,1 %, oziq-ovqat mahsulotlari - 1,5 %, qora metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar - 1,1 % va boshqalar - 7,0 % ni tashkil etdi. Qolgan pozitsiyalar eksport tarkibida mashina va uskunalar, energiya va neft mahsulotlari ulushining sezilarli darajada o‘sishi hisobiga pasayganligini ko‘rsatmoqda.



Tekstil va trikotaj mahsulotlari eksporti dinamikasi

(yanvar-noyabr, ming AQSh doll.)

Mahsulotlar nomi	2018 y.	2019 y.
Kalava ip va gazlamalar	101 329,4	137 551,3
Tayyor tekstil kiyimlar	55 065,0	69 623,2
Tekstil matolar	1 343,2	3 139,6
Tikuvchilik mahsulotlari	1 045,5	2 219,6
Boshqa tekstil tayyor mahsulotlari	1 074,0	1 527,3
Maxsus gazlamalar	379,0	284,1
Ipak va shoyi gazlamalar	5 241,9	13 075,9
Gilamlar	4,8	1,4
Paxta, kiygiz va noto‘qima matolar	5 822,3	4 290,5

2019-yil yanvar-noyabr oylarida tekstil va trikotaj mahsulotlarini eksport hajmi 231,7 mln. AQSh dollarni tashkil etdi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 20,5 foizga o‘tdi, jami eksportdagi ulushi 44,1 foizni tashkil qildi. Tekstil va trikotaj mahsulotlari eksportining asosiy qismi paxta tolasi (59,4 %), shuningdek tayyor trikotaj va kiyimlar (30,0 %) hisoblanadi.

**Tovar va xizmatlarning import tarkibi,
jamiga nisbatan ulushi foizda
(2019-yil yanvar-noyabr)**



2019-yil 11 oyida viloyatning import hajmi 1 853,7 million dollarni tashkil etdi (oʻsish surʼati - 25,0 foiz). Uning tarkibida asosiy ulushni mashina va uskunalar, shu jumladan extiyot qismlar va butlovchi qismlar (64,2 %), kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar (12,2 %), shuningdek qora va rangli metallar (8,5 %) eʼgallaydi.

**MDH va boshqa xorijiy davlatlarning import tarkibi
(2019-yil yanvar-noyabr)**

Import tarkibi	Jami			MDH			Boshqa davlatlar		
	Ming AQSh. doll.	Oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʼati %	Jamiga nisbatan ulushi %	Ming AQSh. doll.	Oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʼati %	Jamiga nisbatan ulushi %	Ming AQSh. doll.	Oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʼati %	Jamiga nisbatan ulushi %
JAMI:	1 853 683,1	125,0	100,0	203 560,4	119,8	100,0	1 650 122,7	125,7	100,0
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	226 733,0	155,1	12,2	17 055,6	124,8	8,4	209 677,4	158,2	12,7



Qora va rangli metallar	157 018,8	151,5	8,5	92 169,7	137,0	45,3	64 849,1	178,4	3,9
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	11 319,9	99,4	0,6	9 399,4	98,3	4,6	1 920,5	105,2	0,1
Mashina va uskunalar	1 189 539,5	114,4	64,2	31 875,5	174,8	15,7	1 157 664,1	113,3	70,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	14 616,9	46,3	0,8	9 884,5	39,0	4,9	4 732,4	76,1	0,3
Xizmatlar	142 157,3	193,1	7,7	4 596,7	2,2 m.	2,2	137 560,6	192,3	8,3
Boshqalar	112 297,6	147,1	6,0	38 579,0	114,3	18,9	73 718,6	173,0	4,5

Import tuzilmasi dinamikasi (2019-yil yanvar-noyabr)

Import tarkibi	2017 y.	2018 y.	2019 y.
JAMI:	100,0	100,0	100,0
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	11,1	9,9	12,2
Qora va rangli metallar	7,4	7,0	8,5
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,4	0,8	0,6
mashina va uskunalar	67,1	70,1	64,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	2,6	2,1	0,8
Xizmatlar	6,1	5,0	7,7
Boshqalar	5,3	5,1	6,0

Mashina va uskunalar dinamikasi

(yanvar-noyabr, ming.AQSh.doll.)

Tarkib	2018 y.	2019 y.
Transport vositalari	793 324,3	796 664,8
Uskunalar va mexanik qurilmalar, ularning qismlari	184 571,3	254 779,7



Tarkib	2018 y.	2019 y.
Elektr dastgoxlar va jixozlar, ularning qismlari	31 564,1	77 180,5

2019-yil yanvar-noyabr oylarida mashina va uskunalar importi 1 189,5 mln. AQSh. doll. ga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,4 % ga o'sgan. Viloyatning jami importidagi ulushi 64,2 %, Uning tarkibida asosiy ulushni transport vositalari (67,0 %), uskunalar va mexanik qurilmalar, ularning qismlari (21,4 %), shuningdek, elektr dastgoxlar va jixozlar, ularning qismlari (6,5 %) e'gallaydi.

Viloyat eksportining asosini tekstil va trikotaj mahsulotlari, mashina va uskunalar tashkil etgan. Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida 299 ta eksport qiluvchi korxonalar mavjud bo'lib, ular tomonidan 46 ta uzoq va yaqin mamlakatlarga eksport amalga oshirilgan.

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**

(71) 230-82-53